

**IJTIMOY-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: TURLARI VA
MAZMUNI**

Kenjaeva Dilrabo “University of Management and Future
Technologies” universiteti S555-guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari, ularning ta’lim jarayonidagi o’rni va samaradorligi tahlil qilinadi. An’anaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar (interfaol o’qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) hamda ijtimoiy moslashuv texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ta’siri o’rganiladi. Shuningdek, O’zbekiston ta’lim tizimida ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning qo’llanilishiga oid misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar, an’anaviy ta’lim, innovatsion ta’lim, interfaol o’qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik samaradorlik

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni samarali qo’llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning bilim olishga bo’lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar pedagogika va sotsiologiya fanlari chorrahasida shakllangan bo‘lib, nafaqat ta’lim olish jarayoniga, balki insonning ijtimoiy muhitda o’zini tutishiga, muloqot ko’nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda ta’lim tizimida an’anaviy va innovatsion yondashuvlar uyg‘unligida pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. An’anaviy texnologiyalar o’qituvchi yetakchiligidagi ta’lim jarayoniga tayanar ekan, innovatsion pedagogik texnologiyalar esa talabaga yo’naltirilgan, interfaol va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan boyitilgan metodlarga asoslanadi. Shu boisdan, ushbu maqolada ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari, ularning mazmuni va amaliyotdagi qo’llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Maqolaning maqsadi ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning ta’lim

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

jarayonidagi o‘rnini o‘rganish va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar qanday turlarga bo‘linadi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonida qanday samaradorlikka egaligi va zamonaviy ta’lim tizimida ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni yanada rivojlantirish uchun qanday choralar ko‘rish mumkin kabi savollarga javob izlanadi.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning turlari va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini o‘rganish maqsadida nazariy tahlil usuli tanlandi. Tadqiqot davomida mavjud ilmiy maqolalar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalari hamda rasmiy manbalar o‘rganilib, ularning mazmuni tahlil qilindi. Ushbu adabiyotlar asosida ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning klassifikatsiyasi, ularning samaradorligi va ta’lim jarayonidagi amaliy qo‘llanilish xususiyatlari aniqlab berildi.

Nazariy tahlil jarayonida ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilgari olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilindi, ularning natijalari taqqoslandi va yangi ilmiy xulosalar chiqarishga harakat qilindi. Shuningdek, ilg‘or tajribalarga asoslangan holda pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Adabiyotlar sharhi. Pliushch, V. va Sorokun, S. (2022) tomonidan yozilgan "Tecnologias pedagógicas inovadoras no sistema educacional" maqolasida zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. Mualliflar bugungi kunda ta’lim sohasida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, shuningdek, zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish zarurligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, ta’lim jarayonida interfaol texnologiyalar, elektron o‘quv materiallari va masofaviy ta’lim modellaridan foydalanish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Maqolada kredit-modul tizimi, individual o‘qitish metodlari va kontekstual ta’lim tamoyillari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Ayniqsa, talabalar bilimini mustahkamlash va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhimligi ta’kidlangan.

Rassolov, I.M. va boshqalar (2016) tomonidan yozilgan "Socio-Pedagogical

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Priorities of the Educational Process at the University: The Didactic Aspect of Information Technology" maqolasida oliv ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri keng muhokama qilingan. Mualliflar zamonaviy texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda katta rol o'ynashini ta'kidlab, ularning noto'g'ri qo'llanilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ham tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, ortiqcha virtual muloqot va o'quvchilarining real hayotdagi ijtimoiy faolligining pasayishi axborot texnologiyalarining salbiy oqibatlaridan biri bo'lishi mumkin. Shu sababli, maqolada axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun maxsus pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish muhimligi ta'kidlangan. Didaktik mezonlar asosida talabalarning kognitiv, motivatsion va axloqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tavsiyalar berilgan.

Shehovskaya, N.L. (2021) tomonidan yozilgan "Socio-pedagogical characteristics of informatization of the educational organization environment" maqolasida informatizatsiyalashuvning ta'lim muhitiga ta'siri keng ko'rib chiqilgan. Muallifning fikricha, ta'lim jarayonini to'liq informatizatsiyalash orqali o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish mumkin, biroq bu jarayonni talabalar va o'qituvchilarining psixologik va ijtimoiy holatini inobatga olgan holda tashkil etish lozim. Maqolada elektron ta'lim resurslarining afzalliklari, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta'lim platformalarining samaradorligi tahlil qilingan. Muallif informatizatsiyalashuv jarayonida didaktik tamoyillarga rioya qilish va an'anaviy ta'lim shakllarini saqlab qolish orqali muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlaydi.

Matjanov, A.J. (2024) tomonidan yozilgan "USE OF PEDAGOGICAL METHODS BASED ON THE MODERN EDUCATIONAL PROGRAM TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION" maqolasida O'zbekiston ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish muhimligi haqida fikr yuritilgan. Muallif O'zbekiston oliv ta'lim muassasalarida interfaol va innovatsion metodlarni keng joriy qilish bo'yicha tadqiqot olib borgan. Maqolada o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish, o'quv jarayonini talabalar uchun yanada qiziqarli va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

samarali qilish yo'llari ko'rib chiqilgan. Muallifning ta'kidlashicha, zamonaviy ta'lim tizimida faqatgina texnologik yangiliklarni joriy qilish yetarli emas, balki o'quvchilarining individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda yondashuvni ishlab chiqish muhimdir. Maqolada ijodiy ta'lim muhiti yaratish, talabalarni mustaqil o'rganishga undash va motivatsion strategiyalarni amalga oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar berilgan.

Umuman olganda, ushbu adabiyotlar zamonaviy ta'limda innovatsiyalar va axborot texnologiyalarining roli haqida bat afsil ma'lumot beradi. O'quv jarayonining samaradorligini oshirish, informatizatsiya jarayonini to'g'ri tashkil etish va pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy jihatlar yoritilgan.

Natijalar. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda va ularning samaradorligi turli jihatlarda namoyon bo'ladi. An'anaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, nazorat va baholash usullari hanuzgacha asosiy o'qitish metodlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu usullar asosan talabalarga asosiy bilimlarni yetkazish, nazariy tushunchalarni shakllantirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy pedagogik yondashuvlar hali ham samarali bo'lsa-da, ularning zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'unlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'ruza usuli auditoriyaning katta qismini qamrab olish va tizimli bilim berishda samarali bo'lsa-da, talabalar faolligini oshirish uchun uni interfaol metodlar bilan birlashtirish talab etiladi.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga interfaol yondashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi bilan sezilarli rivojlandi. Interfaol o'qitish metodlari – munozaralar, rolli o'yinlar, jamoaviy topshiriqlar va loyiha asosida o'qitish – talabalar ishtirokini oshirish va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda katta natijalar bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa masofaviy ta'limni kengaytirish, elektron o'quv materiallari orqali bilim olish imkoniyatlarini oshirish va ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan qilishga xizmat qilmoqda. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarining materialni tushunish darajasini oshirish bilan birga, o'qituvchilarga ham darslarni samarali tashkil etish imkonini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bermoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, elektron platformalar, virtual laboratoriylar va raqamli test tizimlari talabalar bilimlarini nazorat qilish va tahlil qilish jarayonini ancha yengillashtirgan. Ijtimoiy moslashuv texnologiyalari maxsus ehtiyojli shaxslar uchun ta’lim jarayonini moslashtirishga qaratilgan. Jumladan, inkluziv ta’lim dasturlari, maxsus o‘qitish uslublari va moslashtirilgan o‘quv materiallari joriy etilishi natijasida imkoniyati cheklangan shaxslarning ta’lim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Tadqiqotlar natijasida aniqlanganidek, maxsus ehtiyojga ega talabalar uchun audiovizual materiallardan foydalanish, shaxsiy yondashuv asosida o‘qitish va moslashtirilgan baholash tizimlari ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Texnologiyalarni qo‘llash natijalari ularning samaradorlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, aniq metodikalar va sharoitlar asosida o‘zgarishi mumkin. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish natijasida talabalar faolligi va bilim olish darjasini sezilarli darajada oshgan. Masalan, interfaol ta’lim usullarini qo‘llash orqali talabalar orasida fanlarga qiziqish ortib, dars davomida berilgan bilimlarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi oshgani kuzatilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlari kengaygan. Masofaviy ta’lim va onlayn kurslar orqali bilim olish natijalari shuni ko‘rsatadiki, moslashuvchan ta’lim tizimi o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim olish imkoniyatlarini yaratadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar joriy etilib, ularning samaradorligi oshib bormoqda. Jumladan, oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi joriy qilinishi talabalar bilim olish jarayonining samaradorligini oshirgan. Yana bir misol sifatida "Elektron universitet" platformasi orqali ta’lim jarayonini avtomatlashtirish va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish mumkinligi aniqlangan. O‘zbekistonda interfaol metodlarni keng qo‘llash natijasida o‘qitish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida zamonaviy laboratoriylar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligi oshmoqda.

Munozara. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning samaradorligi haqida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ularning qo‘llanishi ta’lim jarayonining sifatini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

oshirishda muhim omil hisoblanadi. An'anaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, uzoq yillar davomida samarali usul sifatida qo'llanilib kelinmoqda, biroq zamonaviy ta'lim talablari ularni innovatsion texnologiyalar bilan birlashtirishni talab etmoqda. Interfaol o'qitish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy qilinishi talabalar bilim olish jarayonining samaradorligini oshirgan bo'lsa-da, bu texnologiyalarning barchaga birdek mos kelishi kafolatlanmagan. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir o'quvchining o'ziga xos o'rganish uslubi bor va ayrim hollarda an'anaviy yondashuvlar ham samarali bo'lishi mumkin. Ijtimoiy moslashuv texnologiyalarining qo'llanilishi maxsus ehtiyojli shaxslar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, bu texnologiyalarni joriy etish jarayonida infrastrukturaviy va pedagogik muammolar mavjud. Jumladan, maxsus moslashtirilgan o'quv materiallari yetishmovchiligi va o'qituvchilarining bu sohada yetarli malakaga ega emasligi ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan bo'lsa-da, ularning real natijalari tizimli tahlil qilinishi va mavjud muammolar bartaraf etilishi zarur. Xususan, elektron ta'lim platformalarining samaradorligini oshirish, masofaviy ta'lim sifatini ta'minlash va pedagoglarning malakasini oshirish masalalariga e'tibor qaratish lozim. Umuman olganda, ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim vosita bo'lib, ularning samarali qo'llanilishi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq, bu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga to'g'ri integratsiya qilish, ularni aniq sharoitlarga moslashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha pedagoglarning malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim vosita bo'lib, ularning samarali qo'llanilishi ta'lim tizimining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. An'anaviy pedagogik texnologiyalar uzoq yillar davomida o'z samarasini ko'rsatib kelgan bo'lsa-da, zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Interfaol o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy moslashuv texnologiyalari

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘quvchilarning ta’lim olish jarayoniga yanada chuqurroq jalg etilishiga va ularning shaxsiy ehtiyojlariga mos keluvchi ta’lim muhitini yaratishga yordam beradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi kengayib bormoqda. Biroq, ularni samarali tatbiq etish uchun infratuzilmani rivojlantirish, pedagoglarning malakasini oshirish va mavjud muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish bilan birga, o‘qitish jarayonining samaradorligini ta’minlashda an’anaviy usullar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilishi lozim.

Shunday qilib, ta’lim tizimidagi ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning muvaffaqiyatli joriy etilishi faqatgina ularning texnik jihatdan mavjudligi bilan emas, balki ularni to‘g‘ri qo‘llash strategiyalari, pedagoglarning malakasi va o‘quvchilar ehtiyojlariga moslashtirish bilan bog‘liqdir. Kelajakda bu texnologiyalarni yanada takomillashtirish va ta’lim jarayoniga moslashuvchan tarzda joriy etish orqali ta’lim sifatini yanada oshirish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pliushch, V. e Sorokun, S. (2022) “Tecnologias pedagógicas inovadoras no sistema educacional”, Revista Tempos e Espaços em Educação. São Cristóvão, 15(34), p. e16960. doi: 10.20952/revtee.v15i34.16960.
2. Rassolov, I.M., Sidyacheva, N.V., Zotova, L.E., Salitova, F.S., Konyushenko, S.M. and Gzhemskaya, N.K., 2016. Socio-Pedagogical Priorities of the Educational Process at the University: The Didactic Aspect of Information Technology. International Journal of Environmental and Science Education, 11(18), pp.10987-10997.
3. Leonidovna, Shehovskaya Natalia. "Socio-pedagogical characteristics of informatization of the educational organization environment." Вестник Шадринского государственного педагогического университета 2 (50) (2021): 28-30.
4. Jarilkapovich, Matjanov Aman. "USE OF PEDAGOGICAL METHODS BASED ON THE MODERN EDUCATIONAL PROGRAM TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION." European International Journal of Pedagogics 4.06 (2024): 26-33.